

O'ZBEKISTONDA IXTISOSLASHTIRILGAN JARROHLIK YORDAM
MAKTABINING ASOSCHISI – VOSIT VOHIDOVICH VOHIDOV

Xayrullayeva E'zoza

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademik, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, ixtisoslashtirilgan jarrohlik yordam maktabining asoschisi hamda Respublikamizda birinchi bo'lib yurak-qon tomir kasalliklarining jarrohlik amaliyoti bilan shug'ullangan, malakali jarroh Vosit Vohidovich Vohidov haqida. U inson yurtimizga jarrohlik amaliyoti va boshqa tibbiyotga oid ko'pgina sohalarda yangiliklarni olib kirdi. Hozirgi kunda Toshkent shahrida V. Vohidov nomidagi ilmiy jarrohlik markazi bo'lib, u yerda V. Vohidov shogirtlari va malakali tibbiyot xodimlari tomonidan bir qancha samarali jarrohlik amaliyotlari olib borilmoqda.*

***Annotation:** This article is about Vosit Vohidovich Vohidov, an academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan, a distinguished scientist in Uzbekistan, the founder of a specialized school of surgical assistance, and the first surgeon in our Republic who was engaged in the surgical operation of cardiovascular diseases. man brought innovations in surgery and many other fields of medicine to our country. Today, there is a scientific surgical center named after V. Vahidov in Tashkent, where a number of effective surgical operations are carried out by V. Vahidov's students and qualified medical staff.*

***Аннотатсия:** В данной статье речь идет о Восите Вахидовиче Вохидове, академике Академии наук Узбекистана, выдающемся ученом Узбекистана, основателе специализированной школы хирургической помощи, первом хирурге в нашей республике, занимавшемся хирургическими операциями на сердечно-сосудистой системе. заболеваний. человек принес в нашу страну инновации в хирургии и многих других областях медицины. Сегодня в Ташкенте действует научно-хирургический центр имени В.Вахидова, где учениками В.Вахидова и квалифицированными специалистами проводится ряд эффективных хирургических операций. медицинский персонал.*

***Kalit so'zlar:** Akademik, qorin bo'shlig'i, o't yo'llari, magistral vena, yurak, ko'ks oralig'i, 1974, mudiri, Turkiston, Abduvohid Xolmetov, Xolmatova Hojar, asarlar, yiringli, xirurgiya, 2003 yili, ixtisoslashtirilgan klinika, o'sma kasalliklari.*



KIRISH

Vosit Vohidovich Vohidov-Vohidovlar oilasi Turkiston shahri yaqinida joylashgan yerlarda dehqonchilik qilishgan. Otasi — Abduvohid Xolmetov, 9 farzandning otasi boʻlgan boʻlib, uning ikki nafar farzandi bolaligida hayotdan koʻz yumgan va Vosit otasiga kichik ukasi bilan birgalikda xoʻjalik ishlarida yordam bera boshlaydi. Onasi — Xolmetova Hojar uchun oila va farzandlar tarbiyasi muhim edi.

Nomzodlik dissertatsiyasini “Funksiya podjeludochnoy jelezi pri gnoynix zabolevaniyax” (yiringli kasalliklarda oshqozon osti bezi vazifalari) mavzusida 1950 yil himoyalaydi. Doktorlik dissertatsiyasini esa “Prevrал bitishmalar va oʻpka qon almashinishida ularning qon tomirlari qiymati” mavzusida 1962 yil himoyalaydi

— [jarroh, Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademik](#) (1979), Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi (1967). ToshMI ni (hozirgi [Toshkent tibbiyot akademiyasi](#)) tugatgan (1939). ToshMI umumiy jarrohlik kafedrasini mudiri (1963-1975). 1975-yildan Toshkent jarrohlik ilmiy markazi direktori, ToshMI hospital xirurgiya kafedrasini mudiri. Asosiy ilmiy ishlari koʻkrak va qorin boʻshligʻi aʼzolari, yurak-tomir kasalliklari diagnostikasi va ularni jarrohlik yoʻli bilan davolashni takomillashtirishga bagʻishlangan. V.Vohidov Oʻzbekistonda birinchi boʻlib yurak, oʻpka, qon tomirlar va qiziloʻngachda operatsiyalar oʻtkazgan. Jahon jarrohlar assotsiatsiyasining haqiqiy aʼzosi (1971-yildan), „Oʻzbekiston tibbiyot jurnali“ bosh muharriri (1979—92). Toshkent jarrohlik ilmiy markazi, Toshkent shahri koʻchalaridan biri [Vosit Vohidov](#) nomi bilan ataladi^[1].

180 dan ziyod ilmiy asarlar muallifi boʻlib, ularning deyarli barchasi jarrohlik, oʻpka kasalliklari, umurtqa organlari, oʻtpufak yoʻllari, jigar, oshqozon, yurak, oyoqlar, qorin boʻshligʻi kasalliklari jarrohligi va boshqalarga bagʻishlangan.

15 nafar doktor va 60 ta fan nomzodlarini tayyorlagan. Butunjahon jarrohlar uyushmasining chinakam aʼzosi, “Meditinskiy jurnal Uzbekistana” (Oʻzbekiston tibbiyot jurnali) muharriri, Pirogova nomidagi “Xirurgiya” jurnalining Tahrir kengashi aʼzosi.

1995 yil yuqorida keltirib oʻtilgan Oʻzbekistondagi ilmiy-tekshiruv instituti uning nomi bilan atalgan.

Akademik V.V. Vohidov 1961 yildan 1972 yilgacha umumiy jarrohlik kafedrasining mudiri, 1972 yildan esa hospital jarrohlik kafedrasining mudiri boʻlgan.



Kafedrani boshqarish bilan bir vaqtda akademik V.V. Vohidov O‘zbekistonda Jarrohlik ilmiy markazi qurilishi tashabbuskori bo‘ldi. 1974 yilda markaz qurilib ishga tushirildi va aholiga ixtisoslashtirilgan jarrohlik yordami ko‘rsata boshladi. Akademik V.V. Vohidov kafedra mudiri lavozimida kafedrani, jarrohlik markazi direktori lavozimida esa markazni boshqarish bilan bir vaqtda, Respublikada jarrohlikni yanada rivojlantirish maqsadida shifokor-jarrohlarni etishtirishga ham katta e‘tibor ajratdi.

ASOSIY QISM

Akademik V.V. Vohidov qizilo‘ngach, o‘nikki barmoqli ichak yara kasalligi, o‘pka sili, o‘pka va ko‘ks oraliq‘i o‘sma kasalliklari, jigar, o‘t yo‘llari, oshqozon osti bezi jarrohlik kasalliklari bilan shug‘ullangan.

Akademik V.V. Vohidov Respublikada birinchilardan bolib yurak-qon tomir kasalliklarining jarrohlik davosi bilan shugullandi. U aorta, magistral vena va arteriyalarda jarrohlik amaliyotlari otkazdi. Markaziy Osiyoda birinch bolib gipotermiya va sun‘iy qon aylantirish sharoitida ochiq yurak operatsiyalarini amalga oshirgan .

"Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan jarrohlik markazi" klinikasi haqida foydali ma'lumotlar

Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan jarrohlik markazi aholiga jarrohlikning turli yo‘nalishlari bo‘yicha professional tibbiy yordam ko‘rsatuvchi davlat tibbiyot muassasasi hisoblanadi. U 1975-yilda tashkil etilgan. 1998-yilda unga uning asoschisi va birinchi direktori bo‘lgan akademik V.Vohidov nomi berilgan. 2003-yildan boshlab tajriba almashish maqsadida Rossiya, Fransiya, Germaniya kabi davlatlar klinikalari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Bugungi kunda u Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya markazi sifatida nafaqat O‘zbekistonning barcha hududlari aholisiga, balki boshqa mamlakatlardan kelgan bemorlarga ham xizmat ko‘rsatayotgan yetakchi tibbiyot muassasalaridan biriga aylandi. Unda 20dan ortiq operatsiya xonalari va intensiv terapiya bo‘limlariga ega statsionar mavjud.

XULOSA

Shunday qilib,tayyorlagan maqolamizdan ko‘rinib turubdiki V.Vohidovni hayot yo‘llari biz yoshlar havas qilsa arzigulik u insonni tibbiyot sohosida yozgan asarlari yosh xirurgik shifokorlarga o‘z kasbini mukkamal egallashga yordam berib kelmoqda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. [O‘zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. <https://www.lex.uz/ru/docs/-458454>
3. <https://arboblar.uz/uz/people/vakhidov-vasit-vakhidovich>

